



**O‘ZBEK TILIDA SINONIMIYA HODISASINING LEKSIK VA
USLUBIY XUSUSIYATLARI**

Nazarova Sabrina Zafarjon qizi

NamDU Filologiya fakulteti o‘zbek tili yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi sinonimiya hodisasi, uning leksik va uslubiy jihatlari atroflicha tahlil qilingan. Sinonimlarning paydo bo‘lish sabablari, turlari, ularning nutqdagi o‘rni hamda sinonimik qator va dominant so‘z hodisasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, sinonimiyaning til boyligini oshirishdagi, nutqni ta’sirchan va ifodali qilishdagi ahamiyati yoritilgan.

Kalit so‘zlar: sinonimiya, ma’nodoshlik, leksik sinonimlar, uslubiy sinonimlar, dominant so‘z, sinonimik qator, dublet.

Annotation: This article provides a comprehensive analysis of the phenomenon of synonymy in the Uzbek language, focusing on its lexical and stylistic characteristics. It discusses the causes of synonym formation, their types, and their role in speech. The study also examines the concept of synonymic rows and dominant words, emphasizing the importance of synonymy in enriching the language and enhancing the expressiveness of speech.

Keywords: synonymy, lexical synonym, stylistic synonym, semantic similarity, dominant word, synonymic row, doublet.

Аннотация: В данной статье подробно рассматривается явление синонимии в узбекском языке, а также её лексические и стилистические особенности. Анализируются причины появления синонимов, их виды и роль в речи. Особое внимание уделяется синонимическим рядам и доминантным словам, а также значению синонимии в обогащении языка и повышении выразительности речи.

Ключевые слова: синонимия, лексические синонимы, стилистические синонимы, доминантное слово, синонимический ряд, дублет, смысловая близость.

Kirish.Til — xalq ma’naviyati, tafakkuri va dunyoqarashining eng muhim ko‘zgidir. Har bir tilning boyligi, ifoda imkoniyatlari va ta’sirchanlik darajasi, eng avvalo, undagi leksik birliklarning rang-barangligi bilan belgilanadi. O‘zbek tili ham o‘zining serma’no, obrazli va boy so‘z zaxirasi bilan ajralib turadi. Shu jihatdan, ma’nodoshlik (sinonimiya) hodisasi o‘zbek tili leksik tizimining eng muhim va faol qatlamlaridan biri sanaladi.

Sinonimiya hodisasi tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiruvchi, nutqni ta’sirchan va boy qiluvchi omil sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ma’nodoshlik orqali inson bir fikrni turli uslubda, ohangda va baho bilan ifodalash imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, “go‘zal”, “chiroyli”, “nazokatli” kabi so‘zlar bir xil ma’noni ifodalasa-da, ularning uslubiy bo‘yoqlari, kontekstual qo‘llanilishi bir-biridan farq

qiladi. Bu esa tilning badiiy-estetik kuchini oshiradi, ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek tilshunosligida sinonimiya hodisasi A. Hojiyev, Sh. Rahmatullayev, A. G'ulomov, E. Begmatov, Yo. Tojiyev kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida chuqur o'rganilgan. Ularning tadqiqotlari orqali sinonimlarning turlari, lug'aviy va grammatik sinonimiya masalalari, shuningdek, dominanta so'z tushunchasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, buyuk mutafakkir Alisher Navoiy ham o'z asarlarida turkiy tillarning boy ifoda imkoniyatlarini ta'kidlab, fors-tojik tilida bunday sinonimik kenglik mavjud emasligini e'tirof etgan. Bu esa sinonimiyaning o'zbek tili uchun qadimdan muhim hodisa bo'lib kelganini ko'rsatadi.

Tahlillar va natijalar. Bugungi kunda sinonimiya nafaqat leksikologik hodisa, balki uslubshunoslik, semasiologiya va nutq madaniyati bilan uzviy bog'liq bo'lgan murakkab til tizimi sifatida o'rganilmoqda. Sinonimlarning paydo bo'lish sabablari, ularning nutqdagi funksional imkoniyatlari, ma'no nozikliklari va uslubiy xususiyatlarini aniqlash tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqolada o'zbek tilida sinonimiya hodisasining leksik va uslubiy jihatlari, sinonimlarning paydo bo'lish sabablari, ularning turlari, shuningdek, sinonimik qator va dominanta so'z hodisalari tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi – sinonimiya orqali o'zbek tilining boy ifoda imkoniyatlarini ochib berish, uning nutqdagi estetik va semantik ahamiyatini yoritishdan iboratdir.

Ma'nodoshlik (sinonimiya) hodisasi o'zbek tilida atroflicha o'rganilgan til birliklaridan biri sanaladi. Ayniqsa, bu borada A.Hojiev, SH.Rahmatullaev, A.G'ulomov, E.Begmatov, Yo.tojiyev kabi olimlarimizning xizmatlari katta. Sinonimiya hodisasi buyuk Alisher Navoiyning ham nazariga tushgan hodisalardan biridir. Navoiy turkiy tillar ifoda imkoniyatlari haqida gapirar ekan, bir ma'noni darajalanishiga yoki holatiga qarab turib bir nechta so'z orqali berish mumkinligini, fors –tojik tilida esa bunday imkoniyatlarining yo'qligini aytib qtadi. Aka, uka, og'a, ini, singil, opa kabi so'zlarning fors –tojik tilida birodar so'zlari bilan berilishi ta'kidlaydi. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, sinonimiya hodisasiga azaldan qiziqish katta bo'lib kelgan ekan. Sinonimiya so'zi aslida grekcha synonima so'zidan olingan bo'lib, bir xil ma'nodagi nom degan tushunchani beradi. Aytilishi va yozilishi har xil, lekin ma'nosi bir -biriga yaqin bo'lgan so'zlarga sinonimlar deyiladi. Masalan: og'ir, vazmin, zalvorli. Sinonimlar barcha so'z turkimlarida uchraydi.[1.42-48-b.]

Ot sinonimlar: uy, hovli, uchastka,eshik.

Sifat sinonimlari: uzoq, yiroq, olim. Olmosh sinonimlar: u, o'sha.

Fe'l sinonimlari: shivirlamoq, pichirlamoq, shipshimoq

Ravish sinonimlari: keyin, so'ng

Yordamchi so'zlar: ammo, lekin, biroq, Leksik birliklarning o'zaro sinonim bo'lishi lug'aviy sinonimiya deyiladi. Osmon, samo, ko'k, fazo, koinot, ko'k kabi.

Lug'aviy sinonimiyani ham uch turga bo'lish mumkin.

a) leksik sinonimiya –tub ma’nosiga ko’ra bir –biriga ma’nodosh bo’lgan so’zlar: asta, sekin, ohista;

b) Fraziologik sinonimlar –turg’un birikma holatidagi ma’nodosh so’zlar: ikki oyog’ini qo’lga olib, o’pkasini qo’lga ilib, it quvilgan soxovdek;

v) leksik – frazeologik sinonimlar –leksema –frazema tipidagi ma’nodosh so’zlar: xursand, og’zi qulog’ida, jim-og’ziga musht tishlaganday kabi. [2.87-94-b.]

Sinonimlarning paydo bo’lishiga quyidagilar sababchi bo’lishi mumkin.

1. So’z ma’nosining kengayishi yoki tarayishi tufayli. Masalan: ko’k so’zi rang ma’nosidan o’z takomili natijasida osmon ma’nosini ifodalashga o’tgan, uning sinonimiga aylangan. Masalan: ko’kka boqma, yerga boq.

2. Ichki imkoniyat asosida shevalardan so’z olish natijasida ham sinonimlar paydo bo’lishi mumkin. Do’ppi –kulox,-kallapo’sh- takya: narvon –shoti –zangi va shu kabilar.

3. CHetdan kirgan so’zlar amalda ishlatilayotgan so’zlar sinonim bo’lib qolishi juda ko’p uchraydigan hodisa sanaladi. Ayniqsa, arab, fors –tojik va rus tillaridan o’zlashtirilgan so’zlar o’zbek tilidagi so’zga hamda bir –biriga sinonim bo’lib qolishini tarix bizga juda ko’p isbotlab bergan. Masalan, turkiy tildagi Tangri so’zi o’rnida fors –tojik tilidan Xudo, arab tilidan Olloh o’zlashtirildi. Egam, Yaratgan, parvardigor, Oliy ruh kabi atamalar ham shu ma’noda ishlatila boshlandi. Bunday misolarni istagancha keltirishimiz mumkin. Sinonimlarning paydo bo’lishi har bir jonli til uchun qonuniy hol sanaladi. Ular tilning ifoda imkoniyatlarini kengaytiradi, nutqni go’zallashtiradi. Ayrim tilshunoslar ta’kidlaganidek, sinonimiya hodisasi zararli emas, baki foydali hodisalardan biri sanaladi. [3.62-67-b.]

Sinonimlarga baho berishda tubandagi uch mezonidan kelib chiqish foydadan holi bo’lmaydi.

1. Ma’no qirrasiga ko’ra. Sinonimlar ma’no jihatidan bir-biriga yaqin turga, ayrim o’rinlarda ulardan birini ikkinchisining o’rniga mutloqo ishlatib bo’lmaydi. Mana shu jihatiga asoslangan holda ularni to’liq sinonimlar, ya’ni qisman birining o’rnida ikkinchisi ishlatish mumkin bo’lgan sinonimlar (yalqov, dangasa, ishyoqmas) ga va ma’noviy sinonimlar (yugurdi, g’izilladi) ga ajratamiz. Ma’noviy sinonimlar ichki ma’no nozikliklari bilan bir –biridan ajralib turadi. Ularning matnda birining o’rniga ikkinchisini qo’llab bo’lmaydi. Ma’noviy sinonimlar –ideografik sinonimlar deb ham ataladi. Ayrim adabiyotlarda ma’no ottenkasiga putur yetkazmasdan birining o’rnida ikkinchisini ishlatish mumkin bo’lgan sinonimlarni absolyut sinonimlar, ma’noviy sinonimlarni esa semantik sinonimlar deb ajratish holatlariga ham duch kelinadi.

2. Sinonimlarning uslubiy baho jihatidan ham ma’lum bir turlarga ajratish mumkin. Sinonimlar uslubiy jihatdan o’zaro bir –biridan farqlanib tursa, ularga uslubiy yoki stilistik sinonimlar deyiladi. Uslubiy baho ularda ikki yo’nalishda bo’ladi. Birinchi yo’nalishga kirgan sinonimlarda uslubiy betaraflik bo’ladi: ketdi, jo’nadi,kabi. Ikkinchi

turdagi sinonimlarda esa uslubiy xoslanganlik kuzatiladi: kuldi, jilmaydi, iljaydi tirjaydi, irshaydi.[4.51-55-b.]

Uslubiy xoslik yana o'z navbatida ikkiga ajraladi:

a) ijobiy baho mavjud bo'lgan

sinonimlar: yuz, chehra, bet;

b) salbiy baholi sinonimlar: turq, aft.

3. Sinonimlarni nutqiy xoslanish jihatidan ham muayyan turlarga ajratish mumkin.

a) umumxalq leksemasi –nutqning barcha ko'rinishlarida ishlatila olinadigan sinonimlar: odam, kishi, inson:

b) so'zlashuv nutqiga xos sinonimlar yoki dialektal sinonimlar: qit, ment, toza (militSIONER)

v) rasmiy nutqqa xos sinonimlar: ishdan bo'shatildi, ozod qilindi kabi. SHu bilan birgalikda tizimida matnda birinchi o'rnida ikkinchisini ishlatish mumkin bo'lgan shoir, adib, yozuvchi tipidagi kontekstual sinonimlar, -sh, (-ish), -v (-uv), - moq, - mak kabi grammatik sinonimlar (borish –boruv -bormoq) ham uchraydi. Xullas, sinonimlarga turli tomonlardan yondashish va ularni har xil turlarga bo'li yuborish mumkin. [5.22-28-b.]

Har bir tilda asrlar davomida u yoki bi sabablarga ko'ra sinonimlarning o'ziga xos qatorlari paydo bo'lishi mumkin. Sinonim so'zlarning bir qatorga tizilib kelishiga sinonimik qator deyiladi. Sinonimik qatordagi boshqalariga nisbatan faol ishlatiladigan, adabiy tilga qis bo'lgan, uslubiy jihatdan betaraf sanalgan so'zga dominanta, ya'ni bosh so'z deyiladi. Masalan: qaramoq, bormoq, tikilmoq, termulmoq sinonimik qatoridagi qaramoq so'zi boshqalariga nisbatan keng iste'molda. SHu bois, u dominanta so'z sanaladi. Sinonimik qatordagi dominanta (bosh) so'zga quyidagi talablar mavjud.

1.Dominanta so'z aniq ma'noni ifodalashi lozim: g'alaba, zafar, tantana, muzaffariyat sinonimik qatoridagi g'alaba so'zida aniq ma'no mavjud.

2. Sinonimik qatordagi dominanta so'z dialektal xususiyatlardan qoli bo'lishi, adabiy – orfografik shaklda ishlatilishi darkor. Bajarmoq fe'li qilmoq, do'ndirmoq fe'llariga umumiste'molga yaqin.

3. Dominanta so'zda uslubiy bo'yoqdorlik bo'lmasligi lozim. Noto'g'ri degan so'zni g'alat yoki chatoq deb ishlatsak, uslubiy baho qo'shilgan bo'ladi. Dominanta so'z neytralligi, umumiste'molga keng ishlatilishi, meva va uslubiy xossalardan xoli ekanligi bilan o'zi mansub bo'lgan qatordagi boshqa so'zlardan keskin farq qiladi. Yordamlashmoq, ko'maklashmoq, qarashmoq, boqishmoq, sinonimining qatoridagi yordamlashmoq so'zi mana shunday xususiyatga ega. Dominanta so'zi har xil shaklda bo'lishi mumkin.

a) tub leksema ko'rinishida: kuch, quvvat, mador, majol, darmon;

b) yasama leksema holatida: g'ayratli, serharakat, tirishqoq;

v) frazema ko'rinishi: burni ko'tarilib ketmoq, dimog'i shishib ketmoq, bosar

tusarini bilmay qolmoq. [6.11-17-b.]

Tilimizda sinonim soʻzlar bilan birgalikda dublet soʻzlar ham ishlatiladi. Birining oʻrnida ikkinchisi hech qanday eʼtirozsiz ishlatish mumkin boʻlgan leksik birliklarga dublet soʻzlar deyiladi. Masalan: ximiya –kimyo , grajdan –fuqaro, sudya–hakam, besh –aʼlo kabi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, sinonimiya hodisasi oʻzbek tili leksik tizimining eng muhim qatlamlaridan biri boʻlib, tilning boyligi va ifoda imkoniyatlarini belgilovchi omil sifatida katta ahamiyatga ega. Sinonimlar nutqni taʼsirchan, rang-barang va obrazli qiladi, soʻzlovchiga bir fikrni turli ohang va uslubda ifodalash imkonini beradi. Tilshunoslikda sinonimlarning leksik, frazeologik, grammatik, kontekstual va uslubiy turlarga ajratilishi ularning tildagi koʻlamini yanada aniqroq tushunishga yordam beradi. Ayniqsa, sinonimik qator va dominanta soʻz hodisalari oʻzbek tilining ichki tizimini chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Sinonimlarning paydo boʻlish sabablari – tarixiy, ijtimoiy va madaniy omillar bilan chambarchas bogʻliqdir. Turli davrlarda boshqa tillardan kirib kelgan soʻzlar, shevalar, tildagi semantik oʻzgarishlar sinonimik qatlamning kengayishiga sabab boʻlgan. Shu bois, sinonimiya hodisasi tilning tabiiy rivojlanish jarayonida doimiy faol harakatda boʻlib, uning goʻzalligi va boyligini ifodalovchi asosiy koʻrsatkichlardan biri sanaladi. Shunday qilib, sinonimiya tilning estetik, badiiy va kommunikativ imkoniyatlarini kengaytiradi, oʻzbek tili lugʻat boyligini yanada yuksak bosqichga olib chiqadi.

References/ Литература/Adabiyotlar:

1. Tursunov U., Begmatov E., Rahmatullayev Sh., Hojiyev A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1992. – 107–120-betlar.
2. Oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Fan, 1984. – 235–255-betlar.
3. Neʼmatov H., Rasulov R. Oʻzbek tili sistem-leksikologiyasi asoslari. – Toshkent: Fan, 1980.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lugʻati. – Toshkent: Universitet, 2002.
5. Rahmatullayev Sh. Hozirgi oʻzbek tili leksikologiyasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1982.
6. Gʻulomov A., Begmatov E. Oʻzbek tili stilistikasi. – Toshkent: Oʻzbekiston, 1985.